

Urganch Davlat universiteti Magistratura bo'limi Matematika mutaxassisligi
2-kurs magistranti Xo'jatov Nurbekning "Yirik arterial tomirlarda puls
to'lqinlarining tarqalishini matematik modellashirish" mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Hozirgi davrga kelib yurak va arterial qon tomirlari deformatsiyasi va ularda qonning pulsli harakati sohasida yetarli darajada ma'lumotlar to'plami shakllandi. Buning natijasida yangi fan biomexanika fani vujudga keldi. Biomexanika fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan katta qon aylanish va kichik qon aylanish doiralari sohasidagi tadqiqotlarning olib borilishi, tibbiyot sohasidagi ko'plab muammolarni yechishda va yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yurak qisqarishi va kengayishidagi yurak miokardasining ishlash mexanizmi hozirgi zomonning eng dolzarb muommolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yurak muskullarining bu qadar tekshirilishining asosiy sabablaridan biri hozirgi vaqtga kelib, yurak-qon tomir kasalliklari bilan aziyat chekayotganlar sonining kundan-kunga oshib borishidadir. Bunga asosiy sabab yurak faoliyatidagi nuqsonlar bo'lib, uning tub ildizi yurak qisqarishidagi yetishmovchiliklarga olib keladi. Yirik qon tomirlari va yurak qorinchalari ichida qonning tarkiblanishini hisobga olgan holda, uning reologik modelini tuzish masalasi hozirgacha o'z yechimini topmagan masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan bu ilmiy ishda qaralayotgan masala dolzarb ahamiyatga ega hisobdanadi.

Qon tarkibi, tuzilishi va uning reologik modelini tuzish nuqtai nazardan taxlil qilinadi. Qon tarkibi murakkab suyuqlikdan iborat bo'lganligi sababli, uni ikki fazoli muhit sifatida qarash maqsadga muvofiqligi ilgari suriladi. Buni hisobga olgan holda, bu ilmiy ishda qonning reologik modeli o'zaro kirishuvchi ikki fazoli gomogen va geterogen muhitlar sifatida tuziladi. Tuzilgan reologik model asosida yurakdan qonning haydalish masalasi yechilib, uning Nyuton modeli asosida aniqlangan natijalardan farq qilishi ko'rsatiladi. Ayniqsa patologik holatda qonning

tabaqalanishi sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lganligi sababli uning normal holatdagi harakatining, patologik holatlardagi harakatidan, chetlashish hollari aniqlanadi. Buning natijasida kelib chiqadigan kasallik sabablari biomexanik nuqtai nazardan asoslanadi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi yuqori matematik saviyada yozilgan, keltirilgan fikrlar qat'iy matematik isbotlarga ega. Xo'jatov Nurbek Jumaboyevichning magistrlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi tomonidan magistrlik dissertatsiyalariga qo'yilgan barcha talablarni qanoatlantiradi.

Xo'jatov Nurbek Jumaboyevichning «Yirik arterial tomirlarda puls to'lqinlarining tarqalishini matematik modellash tirish» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini Davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya qilishga tavsiya qilaman va muvaffaqiyatli himoyadan keyin magistrantni 5A130101-«Matematika (yo'nalishlar bo'yicha)» mutaxassislik bo'yicha matematika magistri akademik darajasiga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

dots. Davletov I.



Urganch Davlat universiteti Magistratura bo'limi Matematika mutaxassisligi 2-kurs magistranti Xo'jatov Nurbekning "Yirik arterial tomirlarda puls to'lqinlarining tarqalishini matematik modellash" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
ICHKI TAQRIZ


Hozirgi davrga kelib yurak va arterial qon tomirlari deformatsiyasi va ularda qonning pulsli harakati sohasida yetarli darajada ma'lumotlar to'plami shakllandi. Buning natijasida yangi fan biomexanika fani vujudga keldi. Biomexanika fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan katta qon aylanish va kichik qon aylanish doiralari sohasidagi tadqiqotlarning olib borilishi, tibbiyot sohasidagi ko'plab muammolarni yechishda va yurak qon tomir kasalliklarini davolashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yurak qisqarishi va kengayishidagi yurak miokardasining ishlash mexanizmi hozirgi zamonning eng dolzarb muommolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yurak muskullarining bu qadar tekshirilishining asosiy sabablaridan biri hozirgi vaqtga kelib, yurak—qon tomir kasalliklari bilan aziyat chekayotganlar sonining kundan-kunga oshib borishidadir. Bunga asosiy sabab yurak faoliyatidagi nuqsonlar bo'lib, uning tub ildizi yurak qisqarishidagi yetishmovchiliklarga olib keladi. Yirik qon tomirlari va yurak qorinchalari ichida qonning tarkiblanishini hisobga olgan holda, uning reologik modelini tuzish masalasi hozirgacha o'z yechimini topmagan masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan bu ilmiy ishda qaralayotgan masala dolzarb ahamiyatga ega hisobdanadi.


Ushbu magistrlik dissertatsiyasi yuqori matematik saviyada yozilgan, keltirilgan fikrlar qat'iy matematik isbotlarga ega. Xo'jatov Nurbek Jumaboyevichning magistrlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi tomonidan magistrlik dissertatsiyalariga qo'yilgan barcha talablarni qanoatlantiradi.

Xo'jatov Nurbek Jumaboyevichning «Yirik arterial tomirlarda puls to'lqinlarining tarqalishini matematik modellash» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini Davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya qilishga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:



f.-m.f.d., prof. A.B.Hasanov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida

UDK

Xo'jatov Nurbek Jumaboyevich

Mutaxassislik: 5A 130101-"Matematik tahlil"

Yirik arterial tomirlarda puls to'lqinlarining tarqalishini matematik
modellashtirish

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy raxbar

 F.m.f.d Navruzov Q.

Urganch 2014



Mundarija

Kirish.....	3
I-BOB. ARTERIAL TOMIRNING TUZILISHI VA UNING ISHLASH MEXANIZMI.....	6
1. Yurak va arterial tomirning tarkibiy-anatomik tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar.....	6
2. Arterial tomiradagi qonning harakatlanish jarayonini matematik modellashtirish..	15
I bob bo'yicha xulosa.....	23
II-BOB. ARTERIAL TOMIRLARNING DEFORMATSIYALANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING MATEMATIK MODELLARI.....	24
1. Arterial tomir deformatsiyalarining matematik modelini uzliksiz muhitlar dinamikasining chiziqsiz tenglamalari orqali ifodalash.....	24
2. Arterial tomirlar ichidagi qonning pulsi harakatini matematik modellashtirish....	28
II bob bo'yicha xulosa.....	42
III-BOB. ARTERIAL TOMIRDA QONNING HARAKATINI MATEMATIK MODELLARI VA UNING TOMIR ICHIDAGI HARAKATI.....	43
1. Devorlari deformatstsiyalanadigan yirik arterial qon tomirlarda qonning pulsi harakatini matematik modellashtirish.....	43
2. Qonning Arterial tomirlarda pulsatsion harakat tenglamalarini yechish.....	53
3. Qonning arterial tomirlarda barqaror bo'lmagan harakat tenglamalarini yechish.	61
III bob bo'yicha xulosa.....	72
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar.....	75

KIRISH

Dissertatsiyaning umumiy tavsifi, mavzuning dolzarbligi.

Biomexanikada arterial tomirlardagi puls to'liqlarini tarqalish muommolarini xal qilish xozirgi zamonning eng dolzarb muommalaridan biri hisoblanadi. Arterial tizimdagi qonning xarakatini matematik modellashtirish asosan yurakdan otilib chqayotgan qonning davriy ravishda bo'lishidan tizimda pulsli oqim vujudga kelishini taminlaydi. Oqimning pulsli bo'lishi elastic tomirdagi tomir devorlarining deformatsiyalanishiga olib keladi. Buning natijasida arterial sistemada puls to'liqlarini vujudga kelishini sodir qiladi. To'liqlarning xosil bo'lishi birinchi navbatda yurakdan otilib chqayotgan qonning davriyligiga ikkinchi navbatda tomir devorlarining elastikligiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari puls to'liqlarini tarqalishi tomirlarda xarakat qilayotgan qonning tarkibiy tuzilishiga bog'liqdir. Ayniqsa qonning zichligiga yopishqoqlik kaifisientiga, harakatni vujudga keltirayotgan bosim gradientiga, kuchlanish tenzoriga, tezliklarning taqsimlanishiga va boshqa gidrodinamik parametrlarga bog'liqdir.

Birinchi bo'lib tomirlardagi qonning pulsli oqimini Grameko.I.S matematik modellashtirib elastic tomirdagi suyuqlikning to'liqlinsimon harakati natijasida natijasida vujudga keluvchi to'liqlinning tarqalish tezligi masalasini yechgan va buning natijasida elastic tomirlardagi puls to'liqlarini tarqalishi tezligini aniqlovchi formulalar taklif qilgan keinchalik esa bir nercha xorijiy va yurtimiz olimlari tomonidan bu muommaga bag'ishlangan bir nechta tadqiqot ishlarini ko'rish mumkin. Bu olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida arterial tomirning xar xil ko'rinishlarini tadbic qilishgan jumladan tomirning yupqa devorli, qalin devorli hususiyatlarini etiborga olib puls to'liqlarini tarqalishi tezligini aniqlab yupqa va qalin devorlarnig elastiklik hususiyatiga puls to'liqlarining bog'lanishi yetarli darajada emaslikini aniqlaganlar. puls to'liqlarini tarqalishi

tezligini umuman olganda qonning tarkibiy tuzilishiga ya'ni uning dinamik va kinematik yopishqoqligiga, qonning pulsli oqim chastatasiga va uning radiusiga bog'liqligini ko'rish mumkin. Arterial tizimdagi puls to'lqinlarini tarqalishi tezligini aniqlash natijasida tomirning elastiklik hususiyatini baxolash mumkin. Bu esa o'z navbatida ba'zi bir arterial tomirlar bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarning vujudga kelishini tashxislash metodlarini yaratadi. Shu nuqtai nazardan ushbu magistrlik dissertatsiyasida hal qilmoqchi bo'lgan muommolar davrimizning eng actual masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan biz ushbu magistrlik dissertatsiyasida qonning pulsli oqimi natijasida vujudga keladigan puls to'lqinlarining arterial tomirlardagi tarqalish tezligini va boshqa r bilan bog'liq bo'lgan gidro va gemodinamik parametrlarni aniqlashga qaratiladi.

Dissertatsiya ishining maqsadi. Arterial tomir tizimidagi qonning pulsli harakati natijasida puls to'lqinlarining tarqalish hususiyatlarini o'rganishdan iborat bo'lib bunda puls to'lqinlarining tomirlardagi tarqalish tezligini uning devorlari deformatsiyasiga, qonning tarkibiga tuzilishiga qarab turib bu kattaliklarning puls to'lqinlarining tarqalishiga ta'sirini o'rganishdan iboratdir.

Dissertatsiya ishining vazifalari. Arterial tizimdagi puls to'lqinlarini tarqalishi tezligini aniqlash natijasida tomirning elastiklik hususiyatini baxolashdan iboratdir.

Dissertatsiyaning tadqiqot ob'ekti. Arterial tomirlardagi qonning harakatini gidrodinamik va gemodinamik nuqtayi nazardan tekshirish.

Dissertatsiyaning tadqiqot predmeti. Biomexanik tadqiqot masalalarini yechishda matematik fizika differensial tenglamalar metodlarini qo'llashdan iboratdir.

Dissertatsiyaning tadqiqot usullari. Differensial tenglamalar sistemasini laplas va furee almashtirishlari yordamida yechish usullaridan iboratdir

Dissertatsiya tuzilishi va tarkibi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf va foydolanilgan adabiyotlardan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Arterial tomirlardagi qonning pulsli harakatini matematik modellash natijasida qo'yilgan masalalar differensial tenglamalar shaklida va differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishida aks ettiriladi. Differensial tenglamalarni yechish uchun qonning arterial tomirdagi harakatini aniqlashda chegaraviy va boshlang'ich shartlar aniqlanadi. Tenglamalar sistemasining berilgan boshlang'ich va chegaraviy shartlarda matematik fizikaning metodlari asosida yechim olingan. Yechim natijalari sifatida qonning tomirdagi tezliklari posim gradientlari suyuqlik sarflari va boshqa gidrodinamik kattaliklari aniqlangan. Bu aniqlangan kattaliklar yordamida arterial tomirdagi puls to'lqinlarining tarqalish tezliklari aniqlangan. Puls to'lqinlarining tarqalish tezligining tomir elastikligiga tomir qalinligiga qonning zichligiga va tomirning radiusiga bog'liqligi aniqlanib bu formula yordamida ko'pchilik kasalliklarda uchraydigan tomirning qattiqligini aniqlash usullari berilgan.


Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu. Dissertatsiyada olingan natijalar tibbiyotning kardiologiya sohasida keng qo'llaniladi jumladan ishimik epyurtonik va boshqa shunga o'xshash arterial stenozasi kasalliklarini tashxos qo'yishda va ularni davolashda yangi biomexanik usullar sifatida amalga oshiriladi.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Dissertatsiyada olingan natijalarning barchasi ilmiy nuqtai nazardan yangi natijalardan iborat bo'lib puls to'lqinlarining tarqalish tezliklarini aniqlash formulalari oldindan ma'lum bolmagan formulalardan iborat bo'lib bu formulalar differensial tenglamalarni yechish natijasida hosil qilingan nazariy formulalardan iboratdir. Bundan tashqari dissertatsiyada tadqiq qilingan devor deformatsiyasini elastic yopishqoq hususiyatda qarash yangi qo'yilgan masala sifatida tasvirlanadi.

I-BOB. YURAK VA ARTERIAL TOMIRNING TUZILISHI VA UNING ISHLASH MEXANIZMI.

1. Arterial tomirning tarkibiy-anatomik tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar


Yurak qon aylanish sistemasining markaziy qismi bo'lib, muskullardan tashkil topgan g'ovak organdir. Har bir odam yuragining hajmi mushtiga yaqin bo'ladi. Jismoniy mehnat va sport bilan shug'ullanuvchi kishilarda yurakning muskullari yaxshi rivojlanib, uning hajmi boshqalar yuragining hajmiga nisbatan kattaroq bo'ladi. Yurakning massasi taxminan erkaklarda 220-300 g gacha, ayollarda esa 180-220 g gacha bo'ladi.



1-рasm. Odam ko'krak qismida yurakning va yirik qon tomirlarining joylashishi.


Yurak ko'krak qafasida to'sh suyagining orqasida, ikkala o'pkaning o'rtasida joylashgan bo'lib, uning ko'proq qismi ko'krak bo'shlig'ining chap tomonida turadi.

U orqa tomonidan qiziloʻngach va aorta qon tomirining pastga tushuvchi qismi orqali umurtqa pogʻonasidan, pastki tomonidan diafragma orqali qorin boʻshligʻidan ajralib turadi. Yurak devori uch qavatdan: ichki endokard, oʻrta muskul yaʼni miokard va tashqi perikarddan iborat. Tashqi pardasi perikard ikki qavat boʻlib, ichki qavati yurak muskuliga yopishib turadi, u epikard deb ataladi. Tashqi qavati xalta sifatida yurakni oʻrab turadi. Ikkala qavat oʻrtasidagi boʻshliqda suyuqlik boʻlib, yurakning qisqarish va kengayish harakatlariga qulaylik tugʻdiradi. Yurak toʻrt kameradan tashkil topgan: oʻng va chap boʻlmacha, oʻng va chap qorincha. Boʻlmachalarning devori yupqaroq, qorinchalar, ayniqsa chap qorinchaning devori qalin boʻladi, chunki chap qorincha aorta qon tomiriga yuqori bosim bilan qon haydab katta qon aylanish doirasi orqali tananing hamma aʼzo va toʻqimalarini arteriya qoni bilan taʼminlaydi.



**2-rasm Yurak qorinchalari va yirik qon
tomirlarning sxematik koʻrinishi.**

Yurakda to'rtta klapan (qopqoq) bo'lib, chap bo'lmacha bilan chap qorincha o'rtasida ikki tavaqali klapan, o'ng bo'lmacha bilan o'ng qorincha o'rtasida uch tavaqali klapan, chap qorincha bilan aorta qon tomiri o'rtasida hamda o'ng qorincha bilan o'pka arteriyasi o'rtasida yarimoysimon klapanlar joylashgan. Yurak klapanlari shunday tuzilganki, ular orqali qon faqat bir tomonga harakatlanadi, ya'ni qon bo'lmachalardan qorinchalarga, ulardan esa aorta va o'pka artetiylariga tomon harakatlanadi. Yurak yuqorida aytilganidek, qon aylanish sistemasining markaziy organi bo'lib, u nasos singari qon tomirlardagi qonni to'xtovsiz harakatlantiradi va tananing hamma organlari, to'qimalari va hujayralarini oziq moddalar va kislorod bilan ta'minlaydi. Uning kameralari orqali bir minutda katta odamda 5,5 l. qon o'tadi.




3-rasm. Yurak kronar(toj) artarialarining joylashishi

a — old tomonidan, b — orqa tomonidan . 1 — chap qorincha; 2 — o'ng qorincha; 3 — chap koronarnaya arteriya (CHKA); 4 — o'ng koronarnaya arteriya; 5 — CHKA egiluchi tarmog'i; 6 — CHKA qorin oralig'i to'sig'ining old tarmog'i ; 7, 8 — Egiluchi tarmoqning orqa tomoni tarmog'i; 9 — o'ng koronarnaya arteriyaning orqa egiluvchi tarmog'i; 10 —koronar sinus.

Yurak muskullari ikkita maxsus tojsimon (koronar) arteriya orqali qon bilan ta'minlanadi. Bu tomirlar aortaning boshlang'ich qismidan ajralib, yurak muskullari orasiga kiradi. Arteriya tomirlaridagi qon yurak muskullarini oziq moddalar va kislorod bilan ta'minlab, vena qoniga aylanadi, ikkita yurak venasini hosil qilib yurakning o'ng bo'lmachasiga quyiladi. Katta yoshli odamda tinch holatda yurakning tojsimon arteriyasi orqali bir minutda 200-250 ml qon yurak muskullariga boradi. Jismoniy mashq bajarganda esa bu qonning miqdori 800-1000 ml gacha ortadi. Bir kecha-kunduzda tojsimon arteriyalar orqali 500 l qon yurak muskullaridan oqib o'tadi.


Yurakning asosiy ishi nasos singari vena qon tomirlaridagi qonni so'rib, arteriya qon tomirlariga o'tkazishdan iborat. Yurakning bu ishi uning bo'lmacha va qorinchalari devoridagi muskullarning ritmik ravishda qisqarishi va kengayishi orqali amalga oshiriladi. Bo'lmacha va qorinchalar muskullarining qisqarishi sistola, kengayishi diastola deb ataladi. Yurakning bo'lmacha va qorinchalarining bir marta qisqarib-bo'shashishi yurakning bir ish sikli deb yuritiladi.



4-rasm. Yurakning sxemaik ko'rinishi, oldidan va orqa tomonidan

a — old tomonidan, b — orqa tomonidan 1 — o'ng qorincha; 2 — o'ng bo'lmacha; 3 — chap qorincha; 4 chap bo'lmacha; 5 — chap bo'lmacha quloqchasi; 6 — aorta; 7 — o'pka arteriyasi; 8 — o'ng va chap o'pka venalari; 9 — yuqori yirik vena; 10 — pastki yirik vena; 11 — koronar (toj) sinus.

Katta odam tinch holatida bo'lganda uning yuragi bir minutda 70-72 marta qisqarab- kengayadi, uning har bir qisqarib kengayishidan bitta puls hosil bo'ladi. Shunday qilib, yurak bir minutda 70-72 marta ish siklini bajaradi. Uning har bir ish sikliga 0,8 sekund vaqt sarflanadi. Yurakning ikkala bo'lmachasi bir vaqtda 0,1 sek davomida qisqaradi, bu vaqtda ulardagi qon qorinchalarga o'tadi. So'ngra yurak bo'lmachalari 0,7 sekund davomida bo'shashadi. Bu vaqtda qorinchalar 0,3 sek davomida qisqarib, o'ng qorinchadagi qon o'pka arteriyasiga, chap qorinchadagi qon aortaga o'tadi. So'ngra qorinchalar bo'shashib, 0,5 sek davomida kengayish holatida bo'ladi.



5-rasm. Kardiomiotsit tuzilishi

a — funksional holati; b — miofibrilldan tuzilgan kardiomiotsit;


Yurakning diastolik va sistolik hajmining farqi, yurakdan siqib chiqarilgan qon miqdoriga teng bo'lad. Yurak qorinchalari har bir qisqarganida 70-80 ml qonni arteriya tomirlariga chiqaradi. Bu yurakning sistolik hajmi deb ataladi. Tinch turgan holatda katta odamning yuragi bir minutda 65-75 marta qisqarib-kengayadi. Har bir

qisqarganida undan chiqarilgan qon miqdori uning bir minutda qisqarib-kengayishi soniga ko'paytirilsa, yurakning minutlik ish hajmi kelib chiqadi. Masalan, bir marta qisqarganda o'rtacha 75 ml qon chiqarilsa, uni bir minutdagi qisqarib-kengayish soniga, ya'ni 75 ga ko'paytirilsa, yurakning minutlik ish hajmi kelib chiqadi. U taxminan 5.5 l ga teng ($75 \text{ ml} \times 72.5 \text{ marta} = 5.4 \text{ l}$). Jismoniy mehnat, sport mashqlari bajarganda yurakning qisqarib-kengayish soni mashg'ulotning sekin yoki tez bajarilishiga ko'ra bir minutda 100 martadan 200 martagacha ko'payishi mumkin. Demak, uning minutlik ish hajmi ham tinch holatdagiga nisbatan 1,5-3 marta ortishi mumkin. Jismoniy mehnatda chiniqqan sportchilarda mashq bajargan vaqtda yurakning sistolik hajmi 65-70 ml o'rniga 100-150 ml gacha ortadi va bir minutda yurakning qisqarib-kengayish soni 150-200 martaga etadi, ya'ni bunda yurakning minutlik hajmi 15-25 l gacha ortishi mumkin. Agar baqa yoki boshqa biror hayvonning yuragini tanasidan ajratib olib, fiziologik eritmaga solib qo'yilsa, u tanadan va nerv sistemasidan ajratilganligiga qaramay, ma'lum vaqt davomida qisqarib-kengayib ishlab turadi. Yurakning o'z-o'zidan bunday ishlash xususiyati yurak avtomatizatsiyasi deb ataladi. Odam tanasidagi boshqa organlarning birortasi bunday xususiyatga ega emas.

Yurak avtomatizatsiyasini, uning muskullari orasida joylashgan maxsus nerv-muskul tuzilmalari (tugunlari) ta'minlaydi. Yurak o'ng bo'lmachasining g'ovak venalari quyiladigan joydagi muskullar orasida Keys-Flyak nerv tugunchasi bo'lib, undagi qo'zg'alish o'ng va chap bo'lmacha muskullari tolalariga tarqalib, ularni qo'zg'atadi va qisqartiradi. So'ngra qisqarish bo'lmacha muskullaridan o'ng bo'lmacha va o'ng qorincha o'rtasida joylashgan Ashoff-Tovar nerv tuguniga o'tadi, uning qo'zg'alishi Giss nerv tolasi va Purkine tolachalari orqali o'ng va chap qorincha muskullariga tarqalib, ularni qisqartiradi.

Odam tanasida qon juda ko'p yirik va mayda qon tomirlar bo'ylab harakatlanadi. Bu qon tomirlar ikkita yopiq, ya'ni katta va kichik qon aylanish

doirasini hosil qiladi. Bu qon aylanish doiralarining ikkalasi ham yurakdan boshlanadi va yurakda tugaydi.




6-rasm. в — sarkomer; г —sarkomer tuzilishi (sxemasi).

Katta qon aylanish doirasi yurakning chap qorinchasidan chiquvchi klapan orkali o'tib, u eng katta arteriya qon tomiri - aortadan boshlanadi. Aorta oldin yuqoriga yo'nalib, ravoq hosil qiladi, so'ngra umurtqa pog'onasi bo'ylab pastga ko'krak va qorin bo'shlig'i tomon yo'naladi. Uning ravoq qismining o'ng tomonidan nomsiz arteriya chiqib, ikkiga: o'ng umumiy uyqu arteriyasi va o'ng o'mrov osti arteriyasiga boglinadi. Aorta ravog'ining o'rta qismidan chap umumiy uyqu arteriyasi chiqadi.

Aorta ravog'ining chap tomonidan chap o'mrov osti arteriyasi chiqadi. O'ng va chap uyqu arteriyalarining har biri tananing bo'yin qismida ikkiga, ya'ni tashqi va ichki uyqu arteriyalariga bo'linadi. Tashqi uyqu arteriyalari bosh va yuzning terisini, quloq muskullarini, tilni, halqum, hiqildoq, so'lak bezlari va tanani bosh qismidagi barcha to'qima va organlarni, ichki uyqu arteriyalari esa bosh miyani, ko'z soqqasini

arterial qon bilan ta'minlaydi. O'ng va chap o'mrov osti arteriyalarining har biri elka va qo'ltiq osti arteriyalariga bo'linib, bo'yin, yelka, bilak va qo'l panjasining terisini, muskullarini, suyaklarini, shu sohadagi bo'g'imlarni arterial qon bilan ta'minlaydi.



7-rasm. Sarkomerning tuzilishi va ishlash mexanizmi

a) b o'shashish vaqti b) qisqarish vaqti

Aortaning ko'krak qismidan qizilo'ngach, qovurg'alararo va bel arteriyalari chiqib, ular qizilo'ngachni, ko'krak qafasi va qorin devori to'qimalarini arterial qon bilan ta'minlaydi. Uning qorin qismidan chiqadigan arteriya tomirlari oshqozon, ichaklari, jigar, taloqni, buyraklar va buyrak usti bezlarini arterial qon bilan ta'minlaydi. Aortaning qorin qismidan chiqadigan arteriyalar to'g'ri ichak, siydik xaltasi, ayollarda bachadon hamda son, boldir, oyoq, tovon va panja terisi, muskullari,

suyaklari va shu sohadagi bo'g'imlarini arterial qon bilan ta'minlaydi. Aortadan chiqadigan yirik arteriya qon tomirlari o'z navbatida o'rtacha, mayda tomirlarga, ular esa eng mayda kapillyarlarga bo'linadi. Bular organlar, to'qimalar orasiga kiradi. Kapillyarlar odam sochidan 50 marta ingichka bo'ladi, ularni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, ya'ni faqat mikroskopda ko'rish mumkin. Odam tanasida 100-160 milliardga yaqin kapillyar bor. Agar tanadagi hamma kapillyarlar bir-biriga ulansa, ularning uzunligi 60-80 ming kilometr bo'lib, u bilan er sharini ikki marta aylantirib o'rashi mumkin. To'qimalardagi va hujayralardagi moddalar almashinuv jarayoni ana shu kapillyarlar orqali uzluksiz davom etib turadi, ya'ni kapillyarlardagi arteriya qonining tarkibidagi oziq moddalar, gormonlar, kislorod hujayralarga o'tadi. Hujayralarda moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan qoldiq moddalar va karbonat angidrid vena kapillyar qon tomirlariga o'tadi. Bular o'z navbatida bir-biriga qo'shilib, avval kichik, so'ngra o'rta va yirik vena qon tomirlarini hosil qiladi. Bosh, bo'yin, ko'krak, qo'l kabi organlarining vena tomirlari qo'shilib, yuqorigi g'ovak venani hosil qiladi; oyoq, chanoq, qorin sohasidagi a'zo va to'qimalarning vena qon tomirlari bir-biriga qo'shilib, pastki g'ovak venani hosil qiladi. Yuqorigi va pastki g'ovak venalar yurakning o'ng bo'lmachasiga quyiladi. Shu bilan katta qon aylanish doirasi tugaydi. Qonning yurakning chap qorinchasidan chiqib, tananing barcha a'zolaridagi arteriyalar, kapillyarlar va venalar bo'ylab oqib, yurakning o'ng bo'lmachasiga kelib quyiladigan yo'li katta qon aylanish doirasi deb ataladi. Shunday qilib, katta qon aylanish doirasi tananing barcha organlari, to'qimalari va hujayralarini oziq moddalar, gormonlar va kislorod bilan ta'minlab, moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan keraksiz va zaharli moddalari o'ziga qabul qilib, ularni organizmdan

chiqarib yuborish vazifasini bajaradi.

2.Arterial tomirlar ichidagi qonning pulsli harakatini matematik modellashtirish.

Yurak qorinchalaridan qonning haydalish mexanizmini matematik modellashtirishda Nave-Stoks tenglamasini va uzliksizlik tenglamalarini masalaning qo'yilish shartlariga qarab soddaroq ko'rinishlarga keltiriladi. Buning uchun esa tenglamalar sistemasida qatnashayotgan kattaliklar yangi kattaliklarga o'tkazilib, qaralayotgan masaladagi kattaliklarning bir-biriga nisbatan katta-kichikligi solishtiriladi va natijada tenglamalar sistemasida qatnashayotgan hadlarning bir-biriga nisbatan qiymatlari aniqlanadi. Ckeksiz kichik qiymatlarga ega bo'lgan hadlar hisobga olinmasdan tashlab yuboriladi. Natijada murakkab tenglamalar sistemasi qo'yilgan masala shartlariga qarab ancha soddaga ko'rinishga keltiriladi. Bu aytilganlarga asoslanib quyida biz yetarlicha katta uzunlikka ega bo'lgan silindrik trubadagi Nyuton suyuqligining tebranma harakatini qaraymiz. Silindrik truba plastinkalari markaziy qismidan Oz o'qini o'tkazamiz, unga perpendikulyar qilib esa Or o'qini o'tkazamiz, suyuqlik oqimini Or o'qiga simmetrik deb qaraymiz, natijada aytilganlarga asosan oqim Oz va Or o'qi bo'yicha bo'lib Ox o'qi bo'yicha esa oqim e'tiborga olinmaydi. Bunga o'xshash oqimlar tabiiy va suniy yurak mexanizmlari faoliyatida, porshenli nasos ish faoliyatlarida kuzatilishi mumkin. Shu nuqtaiy nazardan yurak qorinchalaridan qonning harakatini truba devorlarining davriy ravishda tebranishi natijasida berilgan quyidagi qonun asosida hosil qilinadi deb qaraymiz.

$$R = R_0 (1 + \ell f) \quad (1.1)$$

Bu yerda R_0 – silindrik trubaning o'rtalashtirilgan kengligi,

$$\ell = \frac{\delta_m}{R_0}$$

f – esa truba devorlarining o'rtalashgan muvozanat holatidan chetlashishi;

δ_m – davriy ravishda o‘zgaruchi funksiya.

Qaralayotgan oqimni Or va Oz o‘qlari bo‘yicha simmetrik deb hisoblab, suyuqlikning harakat tenglamasini Nave-Stoks va suyuqlikning uzluksizlik tenglamalari orqali matematik nuqtaiy nazardan Dekart koordinatalar sistemasida ifodalaymiz. Bu tenglamalar sistemasida qatnashayotgan kattaliklarni yangi kattaliklar orqali quyidagicha almashtirib,

$$\begin{aligned} t &= T t_1, \quad z = L z_1, \quad r = R_0 r_1, \\ u &= U u_1, \quad v = V_0 v_1, \quad p = \frac{\mu L U_0}{R_0^2} p_1 \end{aligned} \quad (1.2)$$

$$V/U_0 = \frac{R_0}{L} = \varepsilon,$$

yangi o‘zgaruvchilar orqali ifodalanga tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz.

$$\begin{cases} \alpha^2 \left[\frac{\partial u_1}{\partial t} + \varepsilon \left(u_1 \frac{\partial u_1}{\partial z_1} + v_1 \frac{\partial u_1}{\partial r_1} \right) \right] = -\frac{\partial p_1}{\partial z_1} + \left(\varepsilon^2 \frac{\partial^2 u_1}{\partial z_1^2} + \frac{\partial^2 u_1}{\partial r_1^2} + \frac{\partial u_1}{\partial r_1} \right) \\ \varepsilon^2 \alpha^2 \left[\frac{\partial v_1}{\partial t} + \varepsilon \left(u_1 \frac{\partial v_1}{\partial z_1} + v_1 \frac{\partial v_1}{\partial r_1} \right) \right] = -\frac{\partial p_1}{\partial r_1} + \varepsilon^2 \left(\frac{\partial^2 v_1}{\partial z_1^2} + \varepsilon^2 \left(\frac{\partial^2 v_1}{\partial r_1^2} + \frac{1}{r_1} \frac{\partial v_1}{\partial r_1} - \frac{v_1}{r_1^2} \right) \right) \\ \frac{\partial u_1}{\partial z_1} + \frac{\partial v_1}{\partial r_1} + \frac{v_1}{r_1} = 0 \end{cases} \quad (1.3)$$

Bu yerda

t – vaqt;

z i r – gorizontal va vertikal koordinatalar;

u_1 i v_1 – bo‘ylama va ko‘ndalang tezliklar;

r_1 – bosim;

$\alpha = \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} R_0$ -Reynoldsning berilgan chastotaga mos soni;

$\varepsilon = \frac{R_0}{L} = \frac{V_0}{U_0} \ll 1, \quad \ell = \frac{\delta_m}{R_0} \ll 1$ -kichik miqdorlar.

Keyinchalik faqat o‘lchamsiz kattaliklar bilan ish ko‘ramiz shu sababdan «1» shakldagi belgini e‘tiborga olmasak ham bo‘ladi. Oqimning simmetrikligini hisobga olib faqat $r \geq 0$ sohani qaraymiz va shuni e‘tiborga olgan holda chegaraviy shartlarni bo‘ylama va ko‘ndalang tezliklar uchun keltiramiz. Truba devorlarining tebranishlari faqat vertikal yo‘nalish bo‘yicha bo‘ladi deb qarab, quyidagi chegaraviy shartlarni keltiramiz:

$$v = \frac{\partial R}{\partial t}, \quad u = 0$$

$$r = R(1 + \ell f) \quad (1.4)$$

Truba markazida oqimning simmetriklik sharti bajariladi.

$$\frac{\partial u}{\partial r} = 0, \quad v = 0 \quad r = 0. \quad (1.5)$$

Truba devoridagi ko‘ndalang tezlik truba devorining deformatsiya tezligiga, ya’ni truba devori o‘zgarish funksiyasidan vaqt bo‘yicha olingan hosilaga teng bo‘ladi. Bo‘ylama tezlik esa truba devorida nolga teng bo‘ladi. Truba markazida esa ko‘ndalang tezlik nol bo‘lib bo‘ylama tezlikning vertikal o‘q bo‘yicha xosilasi nolga teng bo‘ladi. Yuqorida keltirilga (1.3) tenglamalar sistemasini berilgan (1.4) va (1.5) chegaraviy shartlar asosidagi yechimini kichik parametrlar metodi asosida aniqlaymiz. Ma’lumki bu tenglamalar sistemasi va chegaraviy shartlar ikkita kichik

o'lcamsiz parametrlarni o'z ichiga oladi. Bular ichidan asosiy parametr sifatida, truba devorlarining o'rtalashgan muvozanat holatidan chetlashishi δ_m –ning, silindrik trubaning o'rtalashtirilgan kengligi R_0 –ga nisbatini olamiz.

Qolgan kichik parametrlarni shu parametr orqali

$$\varepsilon = \varepsilon_0 \ell^n \quad n \geq 1, \quad (1.6)$$

sifatida aniqlaymiz, bu yerda ε_0 –muvozanat soni. Tenglamalar sistemasi (1.3) ning yechimini berilgan chegaraviy (1.4) va (1.5) shartlarda asosiy parametr ℓ -ning darajalari shaklida quyidagi qatorlar sifatida axtaramiz:

$$u = u_0 + u_1 \ell + u_2 \ell^2 + \dots = \sum_{m=0}^{\infty} u_m \ell^m, \quad v = v_0 + v_1 \ell + v_2 \ell^2 + \dots = \sum_{m=0}^{\infty} v_m \ell^m,$$

$$p = p_0 + p_1 \ell + p_2 \ell^2 + \dots = \sum_{m=0}^{\infty} p_m \ell^m. \quad (1.7)$$

Tenglamalar sistemasi (1.3)-ga, chegaraviy shartlar (1.4) va (1.5) –larni e'tiborga olgan holda, (1.7) yechimlarni qo'ysak, u holda kichik parametrlarning darajalari bo'yicha quyidagi ketma-ket keluvchi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial^2 u_i}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial u_i}{\partial r} &= \frac{\partial p_i}{\partial z} + \alpha^2 \frac{\partial u_i}{\partial t} + \varphi(z, r, t), \\ \frac{\partial p_i}{\partial r} &= \psi(z, r, t), \quad \frac{\partial u_i}{\partial z} + \frac{\partial v_i}{\partial r} + \frac{g}{r} = 0, \end{aligned} \quad (1.8)$$

Bu yerda- $\varphi_i(z, r, t)$ i $\psi_i(z, r, t)$ funksiyalar o'zidan oldingi yechimlar asosida aniqlanadi, chegaraviy shartlar esa quyidagicha aniqlanadi:

$$u_i = u_{wi}(z, 1, t), \quad v_i = (z, 1, t) \quad r = 1$$

$$\frac{\partial u_i}{\partial r} = 0, \quad v_i = 0 \quad r=0 \quad (1.9)$$

$R = 1$ -nuqta atrofida Teylor qatoriga yoyamiz. Chunki parametr ℓ oshkora va oshkora bo'lmagan holda chegara shartlari ichida qatnashadi, shuning uchun ham chegaraviy shartlarda qatnashayotgan funksiyalarni Teylor qatoriga yoyish zarur. Qatorga yoyilgan funksiyalar ichida qatnashayotgan kichik parametrlarning bir xil darajalarini tenglash natijasida quyidagi shartlarga ega bo'lamiz:

$$u_{wi}(z, 1 + \ell f, t) = u_{w0}(z, 1, t) + \left(u_{w1} + f \left(\frac{\partial u_{w0}}{\partial r} \right)_{r=1} \right) \ell + \dots = 0, \quad (1.10)$$

$$v_{wi}(z, 1 + \ell f, t) = v_{w0}(z, 1, t) + \left(v_{w1} + f \left(\frac{\partial v_{w0}}{\partial r} \right)_{r=1} \right) \ell + \dots = \ell \frac{\partial f}{\partial t}.$$

Nol, bir va ikki yaqinlashishlar uchun (1.10) quyidagi ko'rinishga keladi:

$$u_{w0} = 0, \quad u_{w1} = f \left(\frac{\partial u_{w0}}{\partial r} \right)_{r=1}, \quad u_{w2} = -f \left(\frac{\partial u_{w1}}{\partial r} \right)_{r=1} - \frac{f}{2} \left(\frac{\partial^2 u_{w0}}{\partial r^2} \right)_{r=1} \quad (1.11)$$

$$v_{w0} = 0, \quad v_{w1} = -f \left(\frac{\partial v_{w0}}{\partial r} \right)_{r=1} + \frac{\partial f}{\partial t},$$

$$v_{w2} = -f \left(\frac{\partial v_{w1}}{\partial r} \right)_{r=1} - \frac{f}{2} \left(\frac{\partial^2 v_{w0}}{\partial r^2} \right)_{r=1}.$$

Silindrik truba ichidagi oqim faqat truba devorlarining qisilib kengayishi natijasida hosil bo'ladi deb qaraymiz. Shuning uchun ham hisob boshida, ya'ni $z=0$ da $u=0$ bo'ladi. Bundan tashqari (1.3) tenglamalar sistemasida qatnashayotgan α^2 - Reynolds sonini ham kichik parametr sifatida qaraymiz. Natijada yuqoridagi

tenglamalar sistemasi va chegaraviy shartlar ikkita emas balki uchta kichik parametrlarni o'z ichiga oladi. Buni hisobga olgan holda (1.3) tenglamalar sistemasining yechimlarini (1.11) chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda topamiz.

$$u_1 = \frac{1}{4} \frac{\partial p_1}{\partial z} (r^2 - 1), \quad u_2 = \frac{1}{4} \frac{\partial p_2}{\partial z} (r^2 - 1) - \frac{1}{2} \left(\frac{\partial p_1}{\partial z} f \right)$$

$$g_1 = -\frac{r_1}{16} \frac{\partial^2 p_1}{\partial z^2} (r^2 - 2), \quad \frac{\partial p_1}{\partial z} = 16 \left[\int \frac{\partial f}{\partial t} dz - \frac{1}{2} \int_{-1}^1 \int \frac{\partial f}{\partial t} dz, dz, \right] \quad (1.12)$$

$$g_2 = \frac{r}{16} \left(\frac{\partial^2 p_2}{\partial z^2} \right) (2 - r^2) + \frac{r}{4} \frac{\partial}{\partial z} \left(\frac{\partial p_1}{\partial z} f \right),$$

$$\frac{\partial p_2}{\partial z_1} = 16 \left(\int f \frac{\partial f}{\partial t} dz - \frac{1}{2} \int_{-1}^1 \int f \frac{\partial f}{\partial t} dz, dz, \right) - 4 \left(f \frac{\partial p_1}{\partial z} - \frac{1}{2} \int_{-1}^1 f \frac{\partial p_1}{\partial z} dz \right);$$

Bu yerda, keyingi tartibdagi yaqinlashuvchi yechimlarning kichikligini e'tiborga olgan holda uchinchi yaqinlashuvchi yechimlar bilan chegaralandik. Hosil qilingan yechimlarni taxlil qilish qulay bo'lsin uchun o'lchamsiz kattaliklarni, o'lchamli shaklga keltiramiz.

$$u_0 = 0, \quad u_1 = \frac{R_0^2}{4\mu} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial z} \right) \left(1 - \frac{r^2}{R_0^2} \right), \quad u_2 = \frac{R_0^2}{4\mu} \left(-\frac{\partial p_2}{\partial z} \right) \left(1 - \frac{r^2}{R_0^2} \right) - \frac{R_0^2}{2\mu} \left(f \frac{\partial p_1}{\partial z} \right);$$

$$g_0 = 0, \quad g_1 = -\frac{R_0^2 r}{16\mu} \left(-\frac{\partial^2 p_1}{\partial z^2} \right) \left(2 - \frac{r^2}{R_0^2} \right), \quad g_2 = \frac{R_0^2 r}{16\mu} \left[\left(\frac{\partial^2 p_2}{\partial z^2} \right) \left(2 - \frac{r^2}{R_0^2} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(f \frac{\partial p_1}{\partial z} \right) \frac{1}{4} \right]$$

$$\frac{\partial p_0}{\partial z} = 0, \quad \frac{\partial p_1}{\partial z} = -\frac{32\mu}{R_0^2} \omega \frac{l}{\pi} \sin \omega t \sin \frac{\pi z}{2l}, \quad (1.13)$$

$$\frac{\partial p_2}{\partial z} = -4 \frac{\mu \omega}{R_0^2} z \sin 2\omega t + 28 \frac{\mu l \omega}{R_0^2 \pi} \sin 2t \sin \pi \frac{z}{l}$$

Topilgan bosim gradientining qiymatini tezlik formulalariga qo'yib, quyidagi yechimlarga ega bo'lamiz:

$$u_0 = 0, \quad u_1 = 8 \frac{\omega l}{\pi} \sin \omega t \sin \frac{\pi}{2} \frac{z}{l} \left(1 - \frac{r^2}{R_0^2} \right),$$

$$u_2 = \left(\omega x \sin 2\omega t - 7 \frac{l \omega}{\pi} \sin 2t \sin \pi \frac{z}{l} \right) \left(1 - \frac{r^2}{R_0^2} \right) + 4 \frac{\omega l}{\pi} \sin 2\omega t \sin \pi \frac{z}{l} \quad (1.14)$$

$$g_0 = 0, \quad g_1 = \omega r \sin \omega t \cos \frac{\pi}{2} \frac{z}{l} \left(2 - \frac{r^2}{R_0^2} \right),$$

$$g_2 = \left(\frac{\omega r}{4} \sin 2\omega t - \frac{7 \omega r}{4} \sin 2\omega t \cos \pi \frac{z}{l} \right) \left(2 - \frac{r^2}{R_0^2} \right) - 2 r \omega \sin 2\omega t \cos \pi \frac{z}{l}$$

Endi u_0 , u_1 , u_2 –bo'ylama tezliklarning topilgan qiymatlarini 0-dan R_0 –gacha integrallab, z -yuzadan oqib o'tuvchi, suyuqlik sarfi uchun formulani hosil qilamiz.

$$Q = Q_0 + \ell Q_1 + \ell^2 Q_2 + \dots$$

$$Q_0 = 0, \quad Q_1 = 4 \omega l R_0^2 \sin \omega t \sin \frac{\pi}{2} \frac{z}{l},$$

$$Q_2 = \frac{R_0^2 \pi \omega}{2} x \sin 2\omega t + \frac{R_0^2 \pi \omega l}{8} \sin 2\omega t \sin \pi \frac{z}{l} \quad (1.15)$$

Bundan ko'rinadiki, bu yerda Q_1 va Q_2 suyuqlik sarfi noldan farqli bo'lib qolganlari esa nolga teng ekan. Demak bu xolda suyuqlikning umumiy sarf formulasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = 4\omega l R_0^2 \sin \omega t \sin \frac{\pi}{2} \frac{z}{l} \frac{\delta_m}{R_0} +$$

$$+ \frac{R_0^2 \pi \omega}{2} z \sin 2\omega t \frac{\delta_m^2}{R_0^2} + \frac{R_0^2 \pi \omega l}{8} \sin 2\omega t \sin \pi \frac{z}{l} \frac{\delta_m^2}{R_0^2} \quad (1.16)$$

$$z = -L, \quad Q = -4\omega l R_0^2 \sin \omega t \frac{\delta_m}{R_0} - \frac{R_0^2 \pi \omega}{2} l \sin 2\omega t \frac{\delta_m^2}{R_0^2}$$

$$z = L, \quad Q = 4\omega l R_0^2 \sin \omega t \frac{\delta_m}{R_0} + \frac{R_0^2 \pi \omega}{2} l \sin 2\omega t \frac{\delta_m^2}{R_0^2} \quad (1.17)$$

Hosil qilingan echim haqiqatdan ham to'g'ri bo'lib u truba devorlarining qisilish va kengayishidagi hajim o'zgarishiga teng bo'ladi. Buni isbot qilish uchun ko'ndalang tezlik aksosida hosil qilingan hajmiy suyuqlik sarfini bo'ylama tezlik asosida aniqlangan suyuqlik sarf formulasiga taqqoslash zarur bo'lib, bunda bir xil natijaga ega bo'lishimiz kerak. Haqiqatdan ham $z = L$ va $z = -L$ kesim yuzalaridan oqib o'tuvchi suyuqlik sarfi quyidagiga teng. (Bu yerda vaqt bo'yicha (1.17) formuladan integral $0 \leq \omega t \leq \pi$, oralikda olindi).

$$Q_{-L} = -8R_0^2 l \frac{\delta_m}{R_0}, \quad Q_L = 8R_0^2 l \frac{\delta_m}{R_0} \quad (1.18)$$

Umumiy yechim esa quyidagi yig'indidan topiladi:

$$Q = |Q_{-L}| + |Q_L| = 16R_0^2 l \frac{\delta_m}{R_0} = 16R_0 l \delta_m \quad (1.19)$$

Ko'ndalang suyuqlik sarfi ko'ndalang tezlikni $-L$ dan L gacha bo'ylama koordinata bo'yicha integrallash yordamida topiladi.

$$Q_{\text{кунд.}} = 16R_0 l \delta_m .$$

Topilgan formulalardan ko‘rinadiki haqiqatdan ham

$$Q_{\text{буй.}} = Q_{\text{кунд.}} \text{ bo‘ladi.}$$

I bob bo‘yicha xulosa

Ushbu bobda yurak va arterial tomirning tarkibiy-anatomik tuzilishi haqida umumiy ma’lumotlar olingan bo’lib, qon tomir ichidagi qonning xarakati matematik modellastirilgan.

II-BOB

ARTERIAL TOMIRLARNING DEFORMATSIYALANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING MATEMATIK MODELLARI

1. Arterial tomir deformatsiyalarining matematik modelini uzliksiz muhitlar dynamikasining chiziqsiz tenglamalari orqali ifodalash

Tibbiyot sohasida Vilyam Garvey 1628 yilda o‘zining «Hayvonlarda qonning harakatlanishi ustida o‘tkazilgan anatomik tadqiqotlar» degan asarida yurakning butun tana qon tomirlariga qonni etkazib berishi va yurak tuzilishini aniq tasvirlab berib, eksperimental tibbiyotga birinchi bo‘lib asos solgan edi. Fransuz vrachi Puazeyl (1842 y.) va keyinchalik esa Xagenbax (1860 y.) ingichka trubkalarda suyuqlik oqimini tekshirib, suyuqlikning laminar oqimi uchun sarf, tezlik, bosim gradienti kabi kattaliklarni aniqlash uchun nazariy formulalarni keltirib chiqarib, gidrodinamika faniga asos soldilar. Hozirgi davrga kelib yurak va arterial qon tomirlari deformatsiyasi va ularda qonning pulsli xarakati sohasida etarli darajada ma’lumotlar to‘plami shakllandi. Buning natijasida yangi fan biomexanika fani vujudga keldi. Biomexanika fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan katta qon aylanish va kichik qon aylanish doiralari sohasidagi tadqiqotlarning olib borilishi, tibbiyot sohasidagi ko‘plab muammolarni yyechishda va yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda muhim rol o‘ynaydi.

Qonning yirik arterial tomirlardagi harakatini xarakterlashda, bu tomirlarning deformatsiyalarini hisobga olish va qonning o‘ziga xos bo‘lgan maxsus tiksotrop suspenziya suyuqligidan iborat ekanligini va undagi yirik zarrachalarning deformatsiyalarini, bir-biri bilan birikishi (agregatsiya) yoki ajralishi (dizagregatsiya) xususiyatlarini e’tiborga olish asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Arterial qon tomirlari deformatsiyasining dinamik tenglamalari keltirib chiqarish uchun, uni tinch xolatda yupqa devorli aylanma silindrik jismdan iborat deb

qaraymiz. Uning radiusni R , zichligini - ρ_ω , devor qalinligini- h , kesim aylanasi birlik uzunligiga mos keluvchi o'zgarish bo'ylama tarangligini - T_{20} , P_0 transmural bosimga mos keluvchi aylanma tarangligini T_{10} deb belgilasak, u holda Laplas qonuni quyidagicha bo'ladi

$$T_{10} = RP_0 \quad (2.1)$$

Bundan tashqari faqat simmetrik diformatsiyalarni qaraganligimiz uchun φ burchak bo'yicha o'zgarishlar hisobga olinmaydi. Shu sababdan bo'ylama va ko'ndalang diformatsiya tarangliklarini mos ravishda T_1 va T_2 deb belgilaymiz. Natijada aylanma silindrik jisim devorlariga uni o'rab turgan muhit tomonidan quyidagi kuchlar ta'sir qiladi:

$$\begin{aligned} & -M_0 \frac{\partial^2 u_x}{\partial t^2} - c_1 \frac{\partial u_x}{\partial t} - k_1 u_x, \\ & -M_0 \frac{\partial^2 u_r}{\partial t^2} - c_2 \frac{\partial u_r}{\partial t} - k_2 u_r \end{aligned} \quad (2.2)$$

Bu yerda devorlarning inertsia kuchi, uning qattiqligi va yopishqoq elastiklik xususiyatlari e'tiborga olindi.

M_0 - devorga yopishtirilgan moddaning birlik massasi;

c_1, c_2 - bo'ylama va radial yopishqoqlik koeffitsienti;

k_1, k_2 - elastiklik koeffitsienti.

